

Hafta davomida 394 nafar fuqaro bilan muloqot qilindi

Murojaatlar bo'limi xodimlari 14-18 avgust kunlari Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya, neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazlarida, Samarqand viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyat markazida, Xorazm viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi filialida, Sirdaryo viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi filialida hamda bir qator nodavlat tibbiyat tashkilotlarida imtiyozli yo'llanma bilan davolangan 257 nafar bemor bilan muloqotda bo'ldi.

Unda tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan o'rganishlar o'tkazildi. Natijada imtiyozli yo'llanma bilan davolangan 9 nafar fuqaro shifokor va hamshiralalar qarovidan, muomalasidan, shifoxonadagi oziq-ovqatlar sifatidan hamda sharoitlari yuzasidan e'tiroz bildirgan bo'lsada, Jamg'arma yozma murojaat qilmasligini bildirdilar.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefon (99 353 93 54, 94 353 93 54)lariga hafta davomida 137 ta fuqaro shundan 5 tasi og'zaki va yozma e'tirozli murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan "sms" xabarnoma, jamg'arma faoliyati hamda fuqarolarning shifoxonalarda yotishi yuzasidan bo'ldi.

Jalaquduq tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan Andijon davlat tibbiyat instituti klinikasida davolanish davrida o'z hisobidan dori-darmonlar sotib olayotganligi, Qamashi tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyat markazi imtiyozli yo'llanma bilan qabul qilmayotganligi, Denov tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma olishda muammolarga uchrayotganligi yuzasidan noroziligini bildirdi. Ushbu e'tirozlar yuzasidan tegishliliqi bo'yicha mas'ullarga ma'lumotlar berildi va e'tirozli murojaatlar o'z vaqtida ijobji hal qilindi.

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanida yashovchi fuqaro tashkilot manziliga Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazi imtiyozli yo'llanma bilan qabul qilmayotganligi yuzasidan, Farg'ona viloyati Buvayda tumanida yashovchi fuqaro turmush o'rtoq'i Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazida imtiyozli yo'llanma bilan davolanish davrida o'z hisobidan pul mablag'lari sarflaganligini bildirib yozma murojaat qildi. Har ikkala murojaat o'rganish jarayonida.

Toshkent shahar Yunusobod tumanida istiqomat qiluvchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan "BAHOR NUR" nodavlat tibbiyat muassasasida davolanish davrida o'z hisobidan pul mablag'lari sarflaganligi yuzasidan yozma murojaat qildi. Ushbu yozma murojaat Jamg'armaning tegishli bo'limlari tomonidan o'rganilmoqda.

Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida yashovchi imtiyozga ega fuqarolardan Jamg'arma ishonch telefoniga kelib tushgan og'zaki murojaatlar xududiylarda o'rganilmoqda. Ayrimlariga tegishliliqi yuzasidan amaliy yordam ko'rsatildi hamda qayerga murojaat qilish kerakligi hududiy bosh mutaxassislar tomonidan tushuntirildi.

Murojaatlar bo'limi xodimlari hafta davomida umumiy 394 nafar fuqarolar bilan muloqot qilindi.

Matbuot xizmati